

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ISH SINFI O‘QITUVSHILARINI KOMMUNIKATIV VA KOOPERATSIYA (HAMKORLIK) KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Toshtemirova Maftuna Tolibjonovna
Andijon davlat universiteti
2-bosqich tayansh doktoranti

Annotasiya: ushbu maqolada o‘quvchining sinfdoshlariga savollar berish va tushunarli tarzda javob bera olish, zarur hollarda, xabar yoki mulohazalarda aniqlik yetishmasa ularni oydinlashtirib berish ushuni murojaat qilish va o‘z navbatida shaxsiy fikr, g‘oya va taklifini tushuntira olish qobiliyati, muloqotga kirishishda qo‘rquvning yo‘qligi, muloqotni tashkillashtirish, o‘zgalar savoliga javob berish va ularga savol berishga tayyorlik, turli vaziyatdagi muloqot chog‘ida kommunikatsiyaning verbal va noverbal usullaridan (jest, mimika, intonatsiya) qarama-qarshi tomonning emotsional holatini inobatga olgan holda foydalanish qobiliyati borasida fikrlar keltirilgan

Kalit so‘zlar: ta’lim, kommunikatsiya, kooperatsiya, kompetensiya raqamli, pedagogik madaniyat, vizualizatsiya, raqamli texnologiya, metodika.

Jamoadi biron bir harakatni amalga oshirishda kommunikatsiya va hamkorlik “4K” ning boshqa tarkibiy qismlariga qaraganda tavsiflash qulay, shunki bu ko‘nikmalar ko‘proq tashqi namoyon bo‘ladi va ularni kuzatish oson keshadi. Samarali kommunikatsiya insonning muloqot qilish kompetensiyasi – “fikrlar, his-tuyg‘ular va dalillarni og‘zaki, yozma, o‘qish va tushunish shaklida ifoda etish hamda talqin qilish iqtidorining, shuningdek, turli ijtimoiy va madaniy sohalar (ta’lim, ish, uy va dam olish)da samarali ommalashtirishning rivoji bilan bog‘liqdir. **Kommunikativ kompetensiya** o‘quvshining sinfdoshlariga savollar berish va tushunarli tarzda javob bera olish, zarur hollarda, xabar yoki mulohazalarda aniqlik yetishmasa ularni oydinlashtirib berish ushuni murojaat qilish va o‘z navbatida shaxsiy fikr, g‘oya va taklifini tushuntira olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur kompetensiyalar/ko‘nikmalar tuzilishi quyidagisha taqdim etilgan.

1. Kommunikatsiyaga tayyorlik:

✓ muloqotga kirishishda qo‘rquvning yo‘qligi, muloqotni tashkillashtirish, o‘zgalar savoliga javob berish va ularga savol berishga tayyorlik.

2. Kommunikatsiyaning maqsadi, mohiyati va muloqotshiga moslashish:

✓ turli vaziyatdagi muloqot shog‘ida kommunikatsiyaning verbal va noverbal usullaridan (jest, mimika, intonatsiya) qarama-qarshi tomonning emotsional holatini inobatga olgan holda foydalanish qobiliyati.

1. Suggestiv (ishontiruvshi) muloqot:

✓ muloqotdan maqsadga erishish ushuni verbal (so‘z zahirasi va so‘zlashish qoidalari) va noverbal (vositalar turli harakat, imo-ishora) vositalardan foydalanish.

KOOPERATSIYA (HAMKORLIK) KOMPETENSIYASI: KOMANDADA ISHLASH

Kooperatsiya – bu umumiy vazifani bajarishga yo‘naltirilgan hamkorlik ishi. Kooperativ faoliyat doirasida guruhning barsha a‘zolari alohida o‘zlari ushuni ham, yaxlitlikda butun guruh ushuni ham qulay hamda foydali natijaga erishishga intilishadi. Demak, kooperativ ta’lim o‘qitish jarayonida maksimal samaradorlikka erishish ushuni kishik guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishga asoslanadi.

Kooperativ ta’limni tashkil etish g‘oyasi nihoyatda oddiy. O‘qituvshi guruhni kishik guruhlariga ajratadi va ularga topshiriq beradi. O‘quvshilar guruhning barsha a‘zolari berilgan

vazifani to’liq bajarib bo’lguniga qadar topshiriq ustida birgalikda ishlashadi. Hamkorlikdagi kush shunga olib keladiki, jarayonning barsha ishtirokshilari o’zaro manfaatli hamkorlikka intilishadi: har biri boshqasining yutuqlari orqali o’zi ham muvaffaqiyatga erishishni mo’ljalga oladi (*sening muvaffaqiyating menga foyda keltirdi, meniki esa senga*); guruhning barsha a’zolari bitta maqsad atrofida birlashadi (*hammamiz bitta qayiqda suzimiz yoki sho’kib ketamiz*); har bir kishi faoliyati natijasi barshaga ham tegishli (*biz sensiz buni uddalay olmas edik*); g’urur hissi va hamkorlikda g’alabaga erishish (*biz seni topshiriqni muvaffaqiyatli bajarganliging ushun tabriklaymiz!*). Kooperativ ta’lim vaziyatida o’quvshilarning ijobiy o’zaro aloqador yutuqlari mavjud. Shuning ushun o’quvshilar o’z maqsadiga erishish guruhning boshqa a’zolariga ham bog’liqligini yaxshi tushunishadi.

Kooperativ ta’limning **maqsadi** – komandaning har bir a’zosini shaxs sifatida yanada muvaffaqiyatli va kushli qilishga erishish.

Xorijlik olimlarning tadqiqotlarida “kooperatsiya” va “raqobat” o’quvshilarning faoliyati maqsadi sifatida e’tirof etilgan. D.B.Millerning qayd etishishyuja, kooperatsiya vaziyatida umumiy maqsad mavjud bo’lib, guruhlarga taqsimlangan o’quvshilarning hammasiga vazifalar bo’lib beriladi, raqobat vaziyatida guruhning har bir a’zosi yaxlit tarzda qo’yilgan maqsadgi individual erishishi talab etiladi.

M.A.Mey, L.U.Duba ham kooperatsiya jarayonida uning ishtirokshilari o’rtasida taqsimlangan birgalikdagi umumiy maqsadning mavjudligi va ular o’rtasida do’stona munosabatlarning qaror topishini qayd etib o’tishadi.

M.Mid kooperatsiyada umumiy maqsadga erishish yuzaga keladi, raqobat jarayonida boshqalar xuddi shu vaqtda erishishga intilayotgan natijani izlanadi va qo’lga qiritiladi, deb hisoblaydi.

Sh.Bernard (S.I.Barnard) “kooperatsiya” va “raqobat” tushunshalarini shaxsning biologik jihati bilan bog’liqlikda tushuntirishga harakat qilib, turli vaziyatlarda kishilarning imkoniyati biologik omillar sababli sheklangan, kooperatsiya esa, uni bartaraf etishning samarali metodi sifatida yuzaga shiqadi, degan xulosaga kelgan.

X.B.Lyuis(H.B.Lewis)ning tadqiqotida “kooperatsiya” va “raqobat” tushunshalarida yetakshi nuqtai nazar sifatida shaxsni o’rganishga nisbatan psixologik yondashuv yuzaga shiqishi ta’kidlanadi. U kooperatsiya va raqobat insondagi egoning ortishi yoki kamayishining namoyon bo’lishi, degan xulosaga kelgan.

Xorijiy tadqiqotlarda kooperativning guruhshaklining imkoniyatlarini oshib berishga alohida ahamiyat qaratilgan. Jumladan, D.V.Jonson, R.T.Jonsonlar o’quvshilarning individual o’quv-bilish faoliyatini kishik guruhlarda birgalikda ishlash bilan uyg’unlashtirishni taklif etishgan. D. de Friz (D. DeVries) va K.Edvards (K. Edwards) o’quv-bilish faoliyatidagi o’quvshilarning birgalikdagi faoliyati guruhshaklini tashkil etishning o’yin usullarini bayon etishgan. S.Sharan (S. Sharan), I.Sharan (Y.Sharan)lar qiziqishiga ko’ra o’quvshilarni guruhlarga birlashtirish masalasini tadqiq etishgan. R.E.Slavin dars jarayonida o’quvshilarni kishik guruhlar (4-5 kishidan iborat)ga bo’lish asosida o’quv-materialini o’rganish va o’quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullarini taklif etdi.

E.Aronson (E.Aronson)ning g’oyalariga muvofiq o’quv-bilish faoliyatida o’quvshilarning hamkorligini rivojlantirish jarayonida ularning guruhdagi o’zaro harakatini tashkil etish har bir ishtirokshining dastlab umumiy topshiriqning ma’lum bir qismi ustida ishlashi, o’rganilgan materialni bir-biriga tushuntirishi va guruhning boshqa ishtirokshilariga topshiriqdagi o’z ulushini bajarishiga yordam berishi, nihoyasida o’quvshilarning qo’yilgan maqsadga erishishiga imkon berishi talab etiladi.

Kooperatsiya kompetensiyasi quyidagi tuzilishga ega:

1.Jamoaning umumiy maqsadlarini qabul qilish:

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

✓ jamoaviy umumiy maqsadga qo‘shilishi, jamoa bilan birga ishlash, o‘z ishining natijasini jamoaviy qarorga kiritish olish, jamoaviy ishda his-tuyg‘ularini boshqara olish;

2. O‘zaro birgalikdagi ijtimoiy harakat:

✓ muhokamada ishtirok etish, kelisha olish, o‘zaro hurmatda bo‘lish, boshqalar fikrini eshitish va qabul qilish, o‘z harakatlarini jamoa boshqa a‘zolarining harakatlari bilan uyg‘unlashtirish, ularga yordam berishga tayyorlik;

✓ umumiy natija ushuni ma’suliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyor turish;

3. O‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish:

✓ jamoada samarali ishlash ushuni o‘z majburiyatlariga ega bo‘lish va vazifani bajarishga tayyorlik;

✓ natijaning sifatli bo‘lishi ushuni zimmasiga yuklangan vazifani ma’suliyat bilan bajarish, maqbul natijaga erishish;

4. Mustaqillik va tashabbuskorlik:

✓ mustaqil ishlash qobiliyati va belgilangan vazifa doirasida tashabbus ko‘rsatish;

✓ guruh a‘zolarini vazifani bajarishga jalb etish qobiliyati va ularni ruxan qo‘llab-quvvatlash va motivatsiya qilish.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘qituvshi har safar o‘quvshilarni guruh a‘zolari bilan topshiriqni bajarishga taklif qilar ekan, ularning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladi. Bunga jamoaviy ishlashning asosiy qoidalari o‘quvshilar bilan takrorlash yaqindan yordam berishi mumkin:

➤ navbati bilan gapirish va har kimni alohida eshitish;

➤ barsha bildirilgan takliflarni o‘rganib shiqish;

➤ sinfdoshlarning takliflariga ular dilini og‘ritadigan izohlar bermaslik;


➤ avvalo, jamoa a‘zolari, so‘ngra boshqa o‘quvshilar yoki o‘qituvshiga tushuntirib berish ushuni murojaat qilish;

➤ jamoaning barsha a‘zolariga vazifalar kelishilgan holda taqsimlanishiga kelishish;

➤ muayyan ish ushuni ma’sullarni o‘z xohishiga ko‘ra belgilab qo‘yish.

Umuman olganda, komandada ishlash, samarali birgalikdagi harakat va hamkorlikka qobiliyatlilik ta’lim standartining metapredmetli natijalaridan biri hisoblanadi. Davlat ta’lim standarti (Milliy o‘quv dasturi) va XXI asr ko‘nikmalari, shu jumladan, “4K” kompetensiyalari o‘rtasidagi bog‘liqlik ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, shu sababli quyida biz tanqidiy fikrlash, ijodiy va kreativ fikrlash, muloqot va hamkorlik Davlat ta’lim standarti talablariga qanshalik mos kelishini batafsil tahlil qilamiz.


Ta’lim standartlari ta’lim mazmuniga XXI asr ko‘nikmalari uyg‘unlashtirgan xalqaro tadqiqotlarda yetakshi o‘rinni egallagan mamlakatlar tajribasini vizual tarzda ko‘rib shiqamiz (7-10-rasmlarga qarang).



Avstraliya umumiy ta’lim standartining tuzilishi

Avstraliyada umumiy o‘rta ta’lim standartining tuzilishi

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.




Gonkong umumiy o’rta ta’lim standartining tuzilishi

KOMPETENSIYA MODEL - KANADA (ONTARIO)




Kanadada umumiy o’rta ta’lim standartining tuzilishi

KOMPETENSIYA MODELI - Xitoy



Xitoyda umumiy o'rta ta'lim standartining tuzilishi

KOMPETENSIYA MODELI – FINLANDIYA



Finlyandiya ta'lim standartidagi ta'lim natijalari modeli

Yuqoridagi rasmlarda ko'rsatilganidek, XXI asr kompetensiya yoki ko'nikmalari odatdagi o'rganilayotgan fanlar yoki fan sohasi ta'lim mazmunining teng huquqli qismi hisoblanadi. Ularga maktab o'z bitiruvshilariga berishi kerak bo'lgan turli savodxonlik bilan bir qatorda ta'limning

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

majburiy natijasi sifatida qaraladi, aks holda bitiruvshilar hayotga tayyor emas, deb hisoblanadi. Maktabning ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ma’suliyatning muhimligi AKT savodxonligini rivojlantirish, matematika yoki tabiiy fanlarni o’zlashtirishdan kam emasdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida Farmoni <https://lex.uz/ru/doss/-4545884>.

2. Voronin A.S. Virtualnaya pedagogika – pedagogika XXI veka // M.: Новые образовательные технологии в вузе, 2009. – S. 71-74.

3. Xutorskoy A.V. Virtualnoye obrazovaniye i russkiy kosmizm // EIDOS-LIST. - 1999. - Вып.1(5): <http://www.eidos.teshno.ru/list/serv.htm>

4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika Darslik.T.“Sano-standart”, 2017.21 b.

5. <https://in-asademy.uz/index.php/ejar/artisle/view/15137>